

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI
QOSHIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.20/13.05.2020.Ss.23.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI**

XOLDAROVA FARIZA TUXTABAYEVNA

**DAVLAT VA JAMIYAT SIYOSIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA
MUZOKARALARNING ROLI**

23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar

**SIYOSIY FANLAR BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по политическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of
Doctor of philosophy (PhD) in political sciences**

Xoldarova Fariza Tuxtabayevna

Davlat va jamiyat siyosiy barqarorligini ta'minlashda muzokaralarning roli
(xorijiy va mahalliy tajriba).....3

Холдарова Фариза Тухтабаевна

Роль преговоров в обеспечении политической стабильности государства и
общества (зарубежный и отечественный опыт).....23

Xoldarova Fariza Tuxtabayevna

The role of negotiations in ensuring the political stability of the state and society
(foreign and local experience)45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published work.....50

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI
QOSHIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.20/13.05.2020.Ss.23.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI**

XOLDAROVA FARIZA TUXTABAYEVNA

**DAVLAT VA JAMIYAT SIYOSIY BARQARORLIGINI TA‘MINLASHDA
MUZOKARALARNING ROLI**

23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar

**SIYOSIY FANLAR BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2017.2.PhD//Siyos43 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.dba.uz/uz/avtoreferatlar) va «ZiyoNET» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Quranboyev Qahramon Qo'chqorovich
siyosiy fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sayfullayev Durbek Baxtiyorovich
tarix fanlari doktori, professor

Rashidov Rustam Rasulovich
harbiy fanlar doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

M.Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi qoshidagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.20/13.05.2020 Ss.23.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «__» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100066, Toshkent sh. Islom Karimov ko'chasi, 45-uy. 7-qavat, 701-xona. Tel.: (99871) 232-60-47; e-mail: info@dba.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ - raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent sh., Islom Karimov ko'chasi, 45-uy, Tel: (99871) 232-60-47).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «__» _____ da tarqatildi.
(2025-yil «__» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.E.Yuldashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

G.O.Sa'diyeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.T.Jalilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kechayotgan globalashuv jarayonlari rivoji davlat va jamiyat siyosiy barqarorligini yanada mustahkamlash bilan bog'liq vazifalarning strategik ahamiyatga egaligini ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Davlat rahbari: "Tinch-osoyishta, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan Markaziy Osiyo – biz intiladigan eng asosiy maqsad va asosiy vazifadir. O'zbekiston o'zaro muloqot, amaliy hamkorlik va yaxshi qo'shnihilikni mustahkamlashning qat'iy tarafdoridir. Biz Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hech istisnosiz barcha masalalar bo'yicha oqilona murosa asosida hamkorlik qilishga tayyormiz"¹, deya ta'kidlaydi. Shu sababli, siyosiy muzokaralar olib borishning zamonaviy mexanizmlarini, siyosiy jarayonlar murakkabligi va globaligidan kelib chiqib, ijtimoiy-siyosiy muhitga samarali joriy qilish dolzarb bo'lib bormoqda.

Dunyo ilm-fanida siyosiy muzokaralarni olib borish strategiyasi va taktikasini tubdan isloh etish, mavjud zamonaviy shart-sharoitlarni hisobga olishning yangi usul va mexanizmlarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada: siyosiy segmentda davlat va jamiyat siyosiy barqarorligini ta'minlashda siyosiy muzokaralarning konstruktiv imkoniyatlaridan samarali foydalanish, mintaqalarda mavjud umumiy muammolarga birgalikda yechim topish, muzokaralar olib borishga qo'yiladigan talablarni zamonaviylashtirish va ularning axloqiy talablarini kuchaytirishga erishish kabi yo'nalishlarda olib borilayotgan tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda davlat boshqaruvini demokratik tamoyillar asosida tashkil etish, xalq bilan, qolaversa, qo'shni mamlakatlar bilan yaqin munosabatlarni o'rnatish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek: "Hozirgi vaqtda mintaqamizda va dunyoda hukm surayotgan, oldindan aytib bo'lmaydigan murakkab sharoitda mamlakatimiz xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlash, jamiyatimizda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini barchamiz chuqur anglaymiz. Bu esa o'tgan davr mobaynida erishgan yutuqlarimiz va yo'l qo'ygan kamchiliklarimiz, to'planib qolgan muammolarni chuqur tahlil qilish, bugun hayotning o'zi ilgari surayotgan talablarni hisobga olishni taqozo etmoqda"². Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, xalq farovonligini oshirishda muzokaralar olib borishning yanada samarali mexanizmlarini tadqiq etish borasida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2012-yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentyabrdagi PF-5185-son "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2017-yil 19-maydagi PF-5046-son "Millatlararo munosabatlar va

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 19 сентябрда Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи. <https://uza.uz/uz/posts/o'zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Хавфсизлик кенгашининг кенгайтирилган таркибдаги мажлисидаги нутқи. <https://president.uz/oz/lists/view/1419>

xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 22-fevraldagi PF-5667-son "Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. "Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va liberallashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Davlat va jamiyat siyosiy barqarorligini ta'minlashda muzokaralarning rolini tadqiq qilishga oid masalalarni o'rganishda davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning asarlari va chiqishlari metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Siyosiy muzokaralar olib borishning tarixiy, ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy-madaniy asoslarini o'rganish bilan aloqador jihatlar, qarashlar qadimgi dunyo mutafakkirlari: Platon, Aristotel, Sitseron asarlarida, Sharq mutafakkirlari: Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abulqosim Zamahshariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur³ qarashlarida o'z ifodasini topgan.

Xorijiy olimlardan: Jeyn Mansbrij, Ketii Jo Martin, J.Nirenberg, I.Ross, K.Sellix, S.S.Jeyn, L.Bellanje, J.P.Lederax, J.Smit, M.Laryuel, S.Peyruz, P.X.Gulliver, R.Tompson, A.Meyson, I.Zartman, A.Demartyno, F.Pfetsch, T.Alsubaie, D.Karimova⁴ kabilar ham shunday tadqiqotlar olib borishgan. Masalan, J.Nirenberg va I.Rosslarning ilmiy izlanishlarida muzokaralarda, eng avvalo, barcha tomonlarning manfaat olishga intilishlari mavjud bo'lishi, muzokaralar shartlari ham manfaatlardan kelib chiqib belgilanishiga oid fikrlarni kuzatishimiz mumkin.

MDH olimlaridan: S.P.Potseluyev, F.A.Maxmadova, N.V.Avralyev, I.A.Vasilenko, I.B.Bayxanov, A.F.Safonov, A.Ye.Churikova, O.A.Borisenko, V.S.Baulina, Sh.Maxmud, E.Ozdemir, S.A.Maxmadov, A.G.Karatkevich, E.L.Sadikova, S.P.Xashemi, A.V.Zaytsev⁵ kabilarning tadqiqotlarida muzokaralar masalasi atroflicha o'rganilgan bo'lib, jamiyat barqarorligida muzokaralarning o'rniga oid qarashlar tadqiq etilgan.

Mamlakatimiz olimlaridan: Sh.Paxrutdinov, K.Kuranbayev, Z.I.Munavvarov, S.Jo'rayev, A.T.Jalilov, S.T.Saidolimov, A.E.Yuldashev, L.Saidova, G.A.Xidoyatov, S.Mirqosimov, L.Abdullayeva, A.Fayzullayev, N.H.Hakimov, Sh.X.Zulfiqorov, N.N.Qodirov, J.Mavlonov, Sh.D.Arapovlarning ilmiy ishlarida muzokaralar atroflicha

³ Yuqorida ko'rsatilgan olimlarning ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

⁴ Yuqorida ko'rsatilgan olimlarning ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

⁵ Yuqorida ko'rsatilgan olimlarning ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

o'rganilgan bo'lsa, S.M.Bo'ronov, A.A.Sattorov, R.Z.Jumayev, D.B.Sayfullayev, Sh.T.Begmatov⁶larning qarashlari va tadqiqotlarida muzokaralarning umumiy jihatlariga ko'proq e'tibor qaratilgan.

Mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlarda davlat va jamiyat barqarorligini ta'minlashga ko'proq e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, davlat va jamiyat barqarorligini ta'minlashda muzokaralarning o'rni va roliga oid tizimli ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan. Xususan, ilmiy manbalar tahlili O'zbekistonda davlat va jamiyat barqarorligini ta'minlashda siyosiy muzokaralarning roliga oid kompleks tadqiqot ishlari yo'qligini ko'rsatmoqda. Shu boisdan ham, davlat va jamiyat barqarorligini ta'minlashda siyosiy muzokaralarning roliga oid tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb, ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, № PZ-20170929253 "Davlat boshqaruvi sohasida mutaxassislarni tayyorlash va davlat xizmatchilari malakasini oshirish bo'yicha maxsus ta'lim yo'nalishlarini ishlab chiqish hamda ular faoliyati samaradorligini baholashning zamonaviy uslublarini joriy etish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi davlat va jamiyat siyosiy barqarorligini ta'minlashda muzokaralarning o'rnini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

davlat va jamiyat barqarorligini ta'minlashga oid ilmiy yondashuvlarni tadqiq qilish;

muzokaralarning mohiyati, vazifalari va tipologiyasini tadqiq qilish;

hozirgi davrda xalqaro siyosiy muzokaralar strategiyasi va taktikasini rivojlantirish omillarini tadqiq etish;

siyosiy mojarolarni hal qilishda muzokaralarning rolini o'rganish;

muzokaralarda OAVlar faoliyatining ahamiyatini tadqiq etish;

siyosiy barqarorlikni ta'minlashda mediatsiyaning o'rnini tadqiq etish;

muzokaralar jarayonida shaxs omilini tadqiq etish;

Markaziy Osiyo mintaqasida O'zbekistonning siyosiy muzokaralar samaradorligini oshirish strategiyasini yaratish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini davlat va jamiyat siyosiy barqarorligiga ta'sir etuvchi muzokaralar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini davlat va jamiyat siyosiy barqarorligini ta'minlashda muzokaralar olib borishning o'ziga xos xususiyatlari, usullari, yo'llari va vositalari, shuningdek, ushbu jarayonda vujudga keladigan ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada ilmiy bilishning obyektivlik, tizimlilik, vorisiylik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik

⁶ Yuqorida ko'rsatilgan olimlarning ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan..

kabi metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“Mintaqaviy hamkorlik va diplomatik muzokaralar samaradorligini oshirish modeli” ishlab chiqilib, uning “Normativ-huquqiy asoslar bloki”, “Siyosiy kommunikatsiya va ishonchni mustahkamlash bloki, Strategik muzokaralarga tayyorgarlik bloki”, “Monitoring va baholash tizimi”, “Ta’lim va diplomatik salohiyatni oshirish bloki” muzokaralarda o‘zaro do‘stlikni mustahkamlash va muzokaralarning tomonlar uchun manfaatli bo‘lishiga xizmat qilishi ilmiy asoslangan;

“mediativ-inklyuziv yondashuv” (tinch va hamkorlikka asoslangan zamonaviy diplomatik strategiya) tashqi siyosatning pragmatik modeli bo‘lib mintaqaviy muzokaralarda aynan kelishuv va hamkorlikka asoslangan muzokaralar madaniyatini shakllantirishga, taraflar o‘rtasida ijobiy muloqot muhitini barpo etishga hamda siyosiy qarama-qarshiliklarni inklyuziv yondashuv asosida yumshatishga xizmat qilishi ilmiy asoslangan;

jamiyatda ziddiyatlarni bartaraf etish va siyosiy plyuralizmni rivojlantirishda muzokaralarning muhosaga yo‘naltiruvchi (konsensus) vazifasi ya’ni siyosiy madaniyatni shakllantirish hamda qarama-qarshi guruhlar o‘rtasida muloqot maydonini yaratish orqali ijtimoiy birdamlikni ta’minlash hamda “differensial va integratsion” jihatlarni takomillashtirish jamiyatda fikrlar xilma-xilligini tan olish va shu asosda umumiy manfaatlar atrofida birlashuvni rag‘batlantirishga olib kelishi hamda bu jarayon siyosiy plyuralizmni mustahkamlash, radikal kayfiyatlarni susaytirish, turli ijtimoiy-siyosiy qatlamlar o‘rtasidagi ishonchni kuchaytirish va barqaror fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim omilga aylanishi ilmiy jihatdan asoslangan;

muzokaralarni faqat siyosiy kelishuv vositasi (ratsional nuqtayi nazardan) sifatida emas, balki jamiyatda ijtimoiy-madaniy va siyosiy identifikatsiyani shakllantiruvchi omil sifatida talqin etish orqali nizolarni bartaraf etish bilan birga, fuqarolarning o‘zlikni anglashini, o‘zaro tan olinishini va umumiy qadriyatlar asosida birlashuvini ta’minlovchi ijtimoiy platforma hamda strategik kommunikatsiya vositasi ekanligi siyosiy vaziyatni tahlil qilish (analysis of the political situation) va idrok etish (method of perception) prizmasida ilmiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqotdan olingan ilmiy natijalar siyosiy munosabatlar doirasida muzokaralarning o‘ziga xos munosabatlarni o‘rnatish va rivojlantirish, mushtarak kuchlar bilan xalqaro terrorizmga qarshi kurashish, qurollanish jarayonining oldini olish, tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash hamda boshqa shu kabi umumiy siyosiy muammolarni hal qilishda xalqaro hamjamiyat bilan aloqalarni rivojlantirish, har bir davlatning keng doiralarga o‘z siyosiy yondashuvini izohlash uchun siyosiy munosabatlar va jarayonlarni yo‘lga soluvchi bitimlarga erishish va imzolash bo‘yicha optimal yo‘l-yo‘riqlar va tavsiyalarni ishlab chiqish zarurati asoslab berilgan;

tadqiqotdan olingan ilmiy natijalar sifatida shakllantirilgan xulosalar, takliflar va tavsiyalar bugungi kunda mamlakatimizda davlat va jamiyat barqarorligini

ta'minlash maqsadida siyosiy muzokaralar samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirishning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va ijtimoiy-madaniy yo'llarini ishlab chiqish zarurati asoslangan;

siyosiy muzokaralarni olib borish tartibi, yo'llari, zamonaviy mexanizmlarini to'plagan holda davlat fuqarolik xizmatchilari uchun amaliy qo'llanma ishlab chiqish zarurati asoslangan;

davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro ishonchni mustahkamlashda muzokaralarning samarali siyosiy kommunikatsiya shakli sifatidagi roli ilmiy jihatdan asoslandi hamda muzokaralar orqali fuqarolarning siyosiy jarayonlarda ishtirokini faollashtirish, davlat organlari va jamiyat institutlari o'rtasida ochiq va inklyuziv aloqalarni yo'lga qo'yish strategiyasi ishlab chiqilgan;

O'zbekistonning milliy sharoitida siyosiy muzokaralar madaniyatini shakllantirish va uni siyosiy barqarorlikni ta'minlashda vosita sifatida rivojlantirishga qaratilgan milliy modeli ishlab chiqilib, unda mahalliy va xalqaro tajribalar sintezi orqali muzokaralarni milliy qadriyatlarga moslashtirish, fuqarolik jamiyati subyektlarining faol ishtiroki hamda davlat organlarining ochiqlik siyosati asosiy mexanizmlar sifatida belgilanishi asoslangan;

har bir davlat fuqarolik xizmatchilarini, ular xoh xalq bilan ishlasin, xoh xalqaro munosabatlar sohasida faoliyat yuritsin, barchasini siyosiy muzokaralar olib borish tartiblariga o'qitish va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasining o'quv dasturlariga "Siyosiy muzokaralar olib borishning zamonaviy usullari" mavzusini kiritish zarurati asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi davlat va jamiyat barqarorligini ta'minlashda siyosiy muzokaralar samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar respublika va xalqaro miqyosda o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlar to'plamlari, OAK ro'yxatidan o'tgan mahalliy hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, respondentlar bilan o'tkazilgan sotsiologik so'rovlar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati siyosiy fanlar-kratologiya, partologiya, siyosiy menejment, siyosiy sotsiologiya fanlariga doir mavzularni boyitadi, shuningdek, tadqiqot natijalaridan oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan O'zbekiston tarixi, falsafa, siyosatshunoslik, huquqshunoslik, sotsiologiya fanlari bo'yicha darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy tavsiyalar tayyorlashda, shuningdek, davlat boshqaruvi organlari xodimlari tayyorlaydigan, jamoat tashkilotlari faollari malakasini oshiradigan akademiya va boshqa o'quv kurslarida tashkil etiladigan o'qishlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada o'rganilgan masalalarning yechimlaridan davlat va jamiyat siyosiy barqarorligini ta'minlash kontekstida tashkil etilayotgan siyosiy muzokaralarning strategik mazmun-mohiyati va amaliy ahamiyatini tushunish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi. Shuningdek, dissertatsiyada o'z aksini topgan nazariy

xulosalar va umumlashmalar, konkret amaliy taklif-tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasida o‘qitilayotgan davlat va jamiyat boshqaruviga tegishli fanlar mavzularini boyitishda, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi” faoliyatida, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy-siyosiy fanlarni o‘qitishda, talabalar uchun uyushtiriladigan muloqot, davra suhbatlarida hamda ushbu yo‘nalishdagi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Davlat va jamiyat siyosiy barqarorligini ta’minlashda muzokaralarning roli (xorijiy va mahalliy tajriba) bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

jamiyatda ziddiyatlarni bartaraf etish va siyosiy plyuralizmni rivojlantirishda muzokaralarning murosaga yo‘naltiruvchi (konsensus) vazifasi ya’ni siyosiy madaniyatni shakllantirish hamda qarama-qarshi guruhlar o‘rtasida muloqot maydonini yaratish orqali ijtimoiy birdamlikni ta’minlash hamda “differensial va integratsion” jihatlarni takomillashtirish jamiyatda fikrlar xilma-xilligini tan olish va shu asosda umumiy manfaatlar atrofida birlashuvni rag‘batlantirishga olib kelishi hamda bu jarayon siyosiy plyuralizmni mustahkamlash, radikal kayfiyatlarni susaytirish, turli ijtimoiy-siyosiy qatlamlar o‘rtasidagi ishonchni kuchaytirish va barqaror fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim omilga aylanishiga oid ilmiy xulosalaridan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari vakili (Ombudsman) faoliyatida (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasining 2024-yil 26-noyabrdagi 01-07-566-son ma’lumotnomasi) foydalanildi. Natijada, 2023-yil Toshkentda Markaziy Osiyo Ombudsmani birinchi forumi o‘tkazilib, “Markaziy Osiyo Ombudsmanlari orasidagi o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida”gi Memorandum hamda “Toshkent deklaratsiyasi”ning diplomatik yondashuvlarga asoslangan, siyosiy muzokaralarning milliy modeliga oid maxsus bandlari ishlab chiqilgan;

“mediativ-inklyuziv yondashuv” (tinch va hamkorlikka asoslangan zamonaviy diplomatik strategiya) tashqi siyosatning pragmatik modeli bo‘lib mintaqaviy muzokaralarda aynan kelishuv va hamkorlikka asoslangan muzokaralar madaniyatini shakllantirishga, taraflar o‘rtasida ijobiy muloqot muhitini barpo etishga hamda siyosiy qarama-qarshiliklarni inklyuziv yondashuvga oid takliflaridan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi faoliyatida foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2025-yil 19-iyuldagi 02-876-son ma’lumotnomasi). Natijada, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2025-yil uchun chora-tadbirlar dasturining III yo‘nalishida belgilangan “G‘oya va mafkura masalasi hamda ilm-fan va ma’rifat targ‘iboti” 15-bandi: “Geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o‘rganish, xatarli tahdidlarga qarshi samarali (konsensusli) g‘oyaviy kurash olib borish” mavzusida targ‘ibot ishlarini tashkil etishda foydalanilgan;

muzokaralarni faqat siyosiy kelishuv vositasi (ratsional nuqtayi nazardan) sifatida emas, balki jamiyatda ijtimoiy-madaniy va siyosiy identifikatsiyani shakllantiruvchi omil sifatida talqin etish orqali ular nizolarni bartaraf etish bilan

birga, fuqarolarning o'zlikni anglashini, o'zaro tan olinishini va umumiy qadriyatlar asosida birlashuvini ta'minlovchi ijtimoiy platforma hamda strategik kommunikatsiya vositasi ekanligi siyosiy vaziyatni tahlil qilish (analysis of the political situation) va idrok etish (method of perception) prizmasida amalga oshishiga oid fikrlaridan "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi foliyatida foydalanilgan. ("Milliy tiklanish" demokratik partiyasi markaziy kengashining 2024-yil 14-noyabrdagi 02-01/69-son ma'lumotnomasi). Natijada, partiyaning davlat va jamiyat hayotida islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan integratsion jarayonlarni mintaqaviy manfaatlardan kelib chiqib tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar, targ'ibot materiallari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 14 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 8 ta xalqaro, 6 ta respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola (8 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, sakkizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 147 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Davlat va jamiyat siyosiy barqarorligi tizimida muzokaralar mohiyatini tadqiq qilishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlanib, ushbu bobning **birinchi paragrafida** mavzuning mantiqiy ketma-ketligidan va mohiyatidan kelib chiqqan holda, davlat va jamiyat barqarorligini ta'minlashga oid ilmiy yondashuvlar, muzokaralarning mohiyati, vazifalari va tipologiyasi hamda hozirgi davrda xalqaro siyosiy muzokaralar strategiyasi va taktikasini rivojlantirish omillari yoritilgan.

Davlat va jamiyat barqarorligi uchun asosiy omillardan biri-muzokaralar jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish hisoblanadi. Bunda muzokaralarning mohiyati va vazifalari yoritiladi, ularning davlat va jamiyat barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati tushuntiriladi. Muzokaralar tipologiyasiga e'tibor qaratilib, ya'ni ularning turlari, maqsadlari va bosqichlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, muzokaralarning turli strategik va taktik yondashuvlari tahlil qilinadi, xalqaro siyosiy muzokaralar doirasidagi yangi tendensiyalar va ularni rivojlantirish uchun zamonaviy

omillar bayon etiladi. Hozirgi xalqaro vaziyatda muzokaralar strategiyasining roli, tashqi siyosatni muvofiqlashtirish va muammolarni tinch yo‘l bilan hal qilish masalalari ochib beriladi. Bu yo‘nalishdagi nazariy-metodologik asoslar davlat va jamiyat siyosiy barqarorligini ta‘minlashdagi muzokaralar muhim ahamiyat kasb etishini tushuntirishga yordam beradi, shuningdek, ushbu jarayonni zamonaviy ilmiy tahlillar orqali yanada samarali tashkil qilish usullari haqida bilim beradi. Ayni paytda, I.Zartman tomonidan qayd etilganidek, “muzokara jarayoni – bu ‘kim nimaga va qachon ega bo‘ladi, degan masalaning siyosiy hal etilishi”dir⁷. Mutaxassislar tomonidan qayd etilishicha, siyosiy barqarorlik faqat majburlovchi mexanizmlar yoki institutlar orqali emas, balki muloqot, kelishuv va ijtimoiy konsensus orqali ta‘minlanadi⁸. Ushbu nuqtayi nazardan muzokaralar barqarorlikni dinamik jarayon sifatida namoyon etadi.

“Davlat” va “jamiyat barqarorligi” tushunchalari siyosatshunoslik va boshqaruv fanida markaziy o‘rinni egallab, turli nazariyaga asoslangan bir qator ta‘rif va mezonlarni o‘z ichiga oladi. Davlat barqarorligi bu davlatning o‘z tuzilishi, funksiyalari va tizimlarini sezilarli buzilishlarsiz saqlab turish qobiliyatini anglatadi. Bu jarayonda siyosiy uzluksizlik, ya‘ni davlatning muntazam, erkin va adolatli saylovlar o‘tkazish va hokimiyatni tinch yo‘l orqali barqaror boshqaruv tizimini saqlab qolish imkoniyati alohida ahamiyat ega. Institutsional mustahkamlik bu davlat institutlarining o‘z vazifalarini bajarishda, davlat resurslarini boshqarishda va qonunlar ijrosini ta‘minlashda samaradorligi va barqarorligidir. Xavfsizlik bu davlatning o‘z fuqarolarining ichki tartibsizliklar va tashqi tahdidlardan xavfsizligini ta‘minlash qobiliyatidir. Iqtisodiy barqarorlik siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlaydigan inflyatsiya, ishsizlik va barqaror rivojlanish bilan boshqariladigan kuchli va barqaror iqtisodiyotdir.

Ijtimoiy barqarorlik bu jamiyatning holatiga va uning uyg‘un faoliyat yuritish qobiliyatiga qaratilgan. Ijtimoiy uyg‘unlik jamiyatdagi turli guruhlar, jumladan, etnik, diniy va ijtimoiy tabaqalar o‘rtasidagi munosabatlar va ishonchning mustahkamligidir. Iqtisodiy tenglik esa, boylik va imkoniyatlarni adolatli taqsimlash, ijtimoiy tartibsizliklarning oldini olish va jamoa farovonligini oshirish demakdir. Bu tushunchalar dinamik bo‘lib, tarixiy, madaniy va iqtisodiy sharoitlariga qarab, turli mamlakatlar va mintaqalarda katta farq qilishi mumkin.

Barqarorlik, ko‘pincha, samarali boshqaruv muvozanatini, barqaror institutlarni va yaxlit jamiyatni talab qiladi. Biroq, aniq ta‘riflar va ustuvorliklar mafkuraviy yo‘nalishlar va boshqaruv modellariga qarab farq qilishi mumkin. Masalan, avtoritar rejimlar jamiyat barqarorligidan ko‘ra, ko‘pincha, fuqarolarning huquq va erkinliklari hisobiga davlat barqarorligiga e‘tibor qaratishi mumkin, bu demokratiyalar esa, inklyuziv boshqaruv va shaxsiy huquqlarni himoya qilish orqali jamiyat barqarorligiga ko‘proq e‘tibor qaratadi.

Siyosiy muzokaralar tipologiyasi, ularning turlari, mazmun va munozaralari ayrim ilmiy yondashuvlar orqali ochib beriladi. Bu yondashuvlarda, masalan, siyosiy

⁷ Zartman, I.W. (1974). The Political Analysis of Negotiation: How Who Gets What and When. World Politics, 26, 385–399. — 6. 386–387.

⁸ Demartyno, A. (2021). Political Stability: To the Problem of Comprehension of Scientific Understanding and Practical Implementation. Politology Bulletin. — 6. 162–164.

muzokaralarning joriy holati, ularning maqsadi va munozaralari, ularning tashqi siyosat va diplomatiyaning boshqa aspektlari bilan aloqadorligi muhokama qilinadi.

Bugun jahonda ijtimoiy-siyosiy munosabatlar taranglashgan sharoitda davlat va jamiyat barqarorligini ta'minlashda "Siyosiy muzokara" iborasi gazetalar va siyosiy jurnallar sahifalarida tobora ko'proq qo'llanilmoqda. Bularning barchasi, shubhasiz, zamon ruhi va jamiyatning samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratishga bo'lgan umidlarining o'ziga xos ifodasidir. Ilmiy yondashuvlarda qaysi davlatlar siyosiy muzokaralarga mezbonlik qilgani, ularning tashqi siyosati va diplomatiyaning boshqa aspektlari haqidagi munozaralar keltiriladi. Ushbu yondashuvlar oliy ta'lim muassasalaridagi "Siyosatshunoslik", "Diplomatiya va xalqaro munosabatlar" kafedralarida keng doirada o'qitiladi. Shu boisdan ham, muallif siyosiy muzokarani o'rganishda ishlatiladigan kategoriyalar apparatini aniqlash va siyosiy tizimda o'zi tomonidan ishlab chiqilgan siyosiy muzokara sxemasi asosida tushunchaning ta'rifini berishga harakat qiladi. Siyosiy muzokara mexanizmining zarur tarkibiy qismi bu ishlarning tahlilidir. Samaradorlik maqsadlar va erishilgan natijalar o'rtasidagi nisbatni tavsiflaydi. Samaradorlikning baholanishi maqsadlarga erishish darajasini va ushbu maqsadlarga erishish uchun bajarilgan harakatlarning bajarilishini yetarli darajada baholashga imkon beradigan o'lchov ko'rsatkichlari mavjudligini, shuningdek, ushbu ko'rsatkichlarni faoliyatning bir qator muhim sohalarida hisoblash usullari, texnologiyalari va texnikalarining mavjudligini anglatadi.

Xalqaro siyosiy muzokaralar strategiyasi va taktikasini rivojlantirish uchun bir necha muhim amallar kerak. Tashqi siyosat va diplomatiyaning boshqa aspektlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Siyosiy muzokaralarda, ko'pincha, tashqi siyosat va diplomatiyaning boshqa aspektlari muhokama qilinadi. Misol uchun, xalqaro munozaralar siyosiy muzokaralarni rivojlantirish uchun juda muhim. Ularda mahalliy siyosatshunos olimlar, diplomatlar va siyosiy elita boshqa mamlakatlardan kelgan mutaxassislar bilan uchrashadi; xalqaro siyosiy muzokaralar strategiyasi va taktikasini rivojlantirish uchun siyosatshunos olimlar, diplomatlar va hatto siyosiy elita ham boshqa rivojlangan mamlakatlar bilan tajriba almashishi kerak. Bu yordamchi omil bo'lib xizmat qiladi, chunki ular boshqa rivojlangan mamlakatlar diplomatiyasida nimalar ko'rib chiqilganini, ularning tashqi siyosat va diplomatiyasining boshqa jihatlarini chuqur tushunib olishga keng imkoniyat yaratadi. Xalqaro siyosiy muzokaralarda texnologik yo'nalishlarning rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Ularda texnologik yo'nalishlardan foydalanish, masalan, videokonferensiyalar yordamida munozaralar o'tkazish mumkin; xalqaro siyosiy muzokaralarda madaniyatni o'rganish muhim hisoblanadi. Ularda boshqa mamlakatlarning madaniyati hamda ularning tashqi siyosat va diplomatiyaning boshqa jihatlarini bilan bog'liq masalalari keltiriladi.

Davlat va jamiyat barqarorligini ta'minlashga nisbatan ilmiy yondashuvlar siyosiy muzokaralarning mohiyati, vazifalari va tipologiyasi hamda hozirgi davrda xalqaro siyosiy muzokaralar strategiyasi va taktikasini rivojlantirish omillarini ilmiy-siyosiy tahlil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu masalalar davlat va jamiyat munosabatlari barqarorligini ta'minlashda markaziy o'rin tutadi. Barqarorlik davlat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatli munosabatlarning uzluksizligini ta'minlashga

qaratilgan bo'lib, bu borada turli ilmiy maktablar va nazariyalar ishlab chiqilgan. Davlat va jamiyat munosabatlarida iqtisodiy barqarorlik ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili bo'lib, adolatli taqsimot va ijtimoiy tenglikni ta'minlash orqali barqarorlik mustahkamlanadi. Jamiyatdagi tenglik va ijtimoiy adolat hamda jamiyatning turli guruhlarini o'rtasidagi hamjihatlik davlat barqarorligining muhim omilidir. Bu jarayonda davlatning ijtimoiy siyosatini optimallashtirish muhim ahamiyatga ega.

Davlat va jamiyat barqarorligini ta'minlashda siyosiy barqarorlik va davlat institutlarining samaradorligi muhim hisoblanadi. Siyosiy tizimning muvozanatli rivojlanishi, xususan, siyosiy elita va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ishonchli aloqalar barqarorlikni ta'minlaydi. Siyosiy muzokaralar barqarorlik va davlat-xalq munosabatlarini mustahkamlashda hal qiluvchi vosita hisoblanadi. Siyosiy muzokaralar turli tomonlar o'rtasidagi muammolarni tinch yo'l bilan hal qilish vositasidir. U barqarorlik va o'zaro ishonchni ta'minlash uchun kerak bo'ladi. Muzokaralar, asosan, qonunlar, qarorlar yoki kelishuvlar orqali mustahkamlanadi. Muzokaralarning asosiy vazifasi turli ijtimoiy, siyosiy yoki iqtisodiy masalalar bo'yicha kelishuvga erishishdir. Bunda barqarorlikni ta'minlash uchun manfaatlar o'rtasida muvozanat yaratish muhimdir. Muzokaralar turli yo'nalishlarga bo'linadi. Xalqaro, davlatlararo, davlat va jamiyat o'rtasidagi ichki siyosiy muzokaralar kabi turlar mavjud. Muzokaralarning har bir turi o'z strategiyasi va taktikasini talab etadi.

Hozirgi zamonda xalqaro siyosiy muzokaralar global miqyosdagi ziddiyatlarni hal qilishda muhim o'rin tutadi. Globallashtirish jarayonlari xalqaro siyosiy muzokaralarning asosiy omillaridan biri bo'lib, davlatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlar, ekologiya, xavfsizlik kabi masalalar-muzokaralarning asosiy yo'nalishlaridan biri.

Xalqaro diplomatik muzokaralar davomida davlatlar o'z manfaatlarini diplomatik vositalar orqali himoya qilishga urinishadi. Bunda muvaffaqiyatli diplomatiya turli manfaatdor tomonlar o'rtasida hamjihatlik yaratishda muhimdir. Bugungi xalqaro siyosiy vaziyatda ziddiyatlarni tinch yo'l bilan hal qilish va davlatlar o'rtasida uzoq muddatli hamkorlikni ta'minlash uchun vositachilikning rolini oshirish zarur. Siyosiy vositachilar orqali kelishuvga erishish bugungi global diplomatiyaning muhim qismi hisoblanadi. Shunday qilib, siyosiy muzokaralarning strategik va taktik vositalari davlat va jamiyat barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ilmiy yondashuvlar, xususan, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlashda muzokaralarning roli va ahamiyatini aniqlashga imkon beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Davlat va jamiyat munosabatlari tizimida siyosiy mojarolarni hal etish va barqarorlikni ta'minlashda muzokaralarning o'rni**" deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda muzokaralar siyosiy mojarolarni hal qilishning muhim omili sifatida, muzokaralarda OAV faoliyatining ahamiyati hamda siyosiy barqarorlikni ta'minlashda mediatsiyaning o'rni ilmiy asoslangan. Ushbu bobda asosiy maqsad ijtimoiy-siyosiy mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilishda davlat va jamiyat uchun muzokaralardan foydalanish samaradorligini oshirishdan iborat. Buning uchun turli omillar, jumladan, siyosiy liderlarning muzokara olib borish kompetensiyalari, mamlakatdagi siyosiy muhit, huquqiy asoslar va diplomatik

an'analar kabi omillar o'rganilgan.

Siyosiy mojaroni hal qilish uchun ongimiz mojarolar vaqtida qanday ishlashini chuqur tushunish talab qilinadi. Kelajakdagi muzokaralar ko'p jihatdan muzokaralar oldidan bo'ladigan bosqichga bog'liq desak, mubolag'a bo'lmaydi. Samarali muloqot uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish juda muhimdir. Bu shuni anglatadiki, muzokarlarda ishtirok etayotgan tomonlar muzokaralar jarayoni ishonchli bo'lishi va ularning manfaatlarini hisobga olgan holda natijaga erishish potensialiga ega bo'lishi lozim. Agar muzokaralardan oldingi bosqichda bunday samarali yondashuv o'tkazib yuborilgan bo'lsa, nizolashayotgan tomonlarni muzokara stoliga jalb qilish imkoniyatiga erishilmaydi. Haqiqatan ham, agar ular bunday sharoitda muzokara stoliga kelishsa, bu hech qanday maqsadga xizmat qilmasligi mumkin. Bu yerdagi asosiy xavf-xatar shundaki, agar yaqinlashish jarayoni muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, zo'ravonlikning jiddiy turi yana boshlanishi mumkin. Shu sababli, ushbu bosqichda tomonlarning muzokarlarda ishtirok etish istagi nuqtayi nazaridan strategik niyatlarini tekshirish juda muhimdir. Odatda, nizolashayotgan tomonlar kelishuvga erisha olmasa, vositachilikka murojaat qilinadi. Bu ichki siyosiy mojaralarda ham qo'llaniladi, chunki u ajralmas bo'lib, isyonchi harakatlar hukumat suverenitetiga qarshi kurashadi, o'zlarini o'ziga xos o'zgaruvchan egolar sifatida ko'rsatadi, hukumat esa, ularni noqonuniy deb biladi. Bu to'g'ridan-to'g'ri muloqotni qiyinlashtirishi mumkin. Shunday hollarda vositachilik muzokaralar uchun zarur, hatto ajralmas shartga aylanadi: ishtirokchilar o'z kelishmovchiliklarini bartaraf etishda yordam berish uchun neytral tashqi tomonni chaqiradilar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, vositachilik muzokaralar oldidan boshlanadi va muvaffaqiyatli (kelishuv) yoki muvaffaqiyatsizlik (kelishuvning yo'qligi) bilan yakunlangan muzokaralar yakunlanishi bilan bog'liq. Binobarin, vositachilar tinchlik jarayonining muvaffaqiyatida markaziy rol o'ynaydi. Shuning uchun mediatorning roli va profilini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Frank R.Pfetsch ta'kidlaganidek: "Muzokaralar siyosiy muhokamadagi kuch va ta'sirni muvofiqlashtiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi"⁹. Bunday holatda, muzokaralarning samaradorligini ta'minlashda ommaviy axborot vositalarining (OAV) roli, ayniqsa, muhim hisoblanadi. Axborot maydonida shaffoflik, xolislik va konstruktiv muloqotni ta'minlash orqali OAV nafaqat mojaroning aks-sadosi, balki uni hal etishning madaniy va institutsional vositasiga aylanadi. T.Alsubaye o'z tadqiqotlarida OAVning muzokara jarayonidagi ishtiroki taraflar o'rtasidagi ishonchni tiklash va axborotni samarali taqsimlash orqali siyosiy barqarorlikka xizmat qilishini alohida ta'kidlaydi¹⁰.

Hozirgi davrda davlat va jamiyat siyosiy barqarorligini ta'minlashda muzokaralar olib borish bilan bog'liq masalalar har bir davlatning ichki va tashqi siyosatini belgilashda ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu esa, har bir mamlakatda tinchlik va siyosiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'lidagi siyosiy muzokaralar olib borishning ratsional va potensial imkoniyatlarini baholashda yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Zero, hozirgi vaqtda dunyodagi mavjud ko'pgina

⁹ Pfetsch, F.R. (2007). The Role of Power in Negotiations. - In: Negotiating Political Conflicts. Palgrave Macmillan. - 6. 93-94.

¹⁰ Alsubaie, T. (2019). The Role of Negotiations in International Relations. - 6. 3-4.

muammolarni hal etishda siyosiy muzokaralarni yanada rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqotchining fikriga ko'ra, O'zbekistonning siyosiy muzokaralar olib borishdagi tajribasini tahlil qilish va uni xalqaro maydondagi diplomatik yondashuvlar bilan solishtirish orqali milliy modelni ishlab chiqish zarurati dolzarblashmoqda.

Siyosiy muzokaralar muloqoti pragmatik etika bilan boshqariladi. Bu qonunlar va shartnomalarga rioya qilishni talab qiladi, xavfsiz mahsulotlar va xizmatlarni taklif qiladi, va'da qilingan narsalarni bajaradi va atrof-muhitni himoya qiladi. Biroq, shaxsiy axloq tuyg'usi muzokaralarning asosiy maqsadiga bo'ysunadi: tashkilot uchun maksimal foydani ta'minlash ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy barqarorlikni ta'minlashda mediatsiya – mamlakatimizda fuqarolik mediatsiyasining go'zal an'analarni meros qilib olish va davom ettirish asosida ishlab chiqilgan o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan huquqiy tizim bo'lib, davlat yuridik xizmati tizimining muhim bo'g'ini bo'lib, muammolarni hal etishning ko'p tarmoqli mexanizmida asosiy rol o'ynaydi. Ko'pgina muzokarachilar qandaydir tarzda muzokaralar mohiyatini tushunmaydilar va bunday muzokaralar talablari va shaxsiy daxlsizlik hissi o'rtasidagi qarama-qarshilikdan kelib chiqadigan ziddiyatli vaziyatlarni yarastirishga harakat qiladilar. Muzokarachi obyektiv bo'lishni o'rganishi kerak va o'zining shaxsiy axloqiy tuyg'usini asosiy maqsadga - o'z boshliqlari uchun eng yaxshi bitimni ta'minlashga bo'ysundira olishi kerak.

Siyosiy muzokarlarda siyosiy mojarolar bilan bog'liq muammolarni tizimli tahlil qilish va ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatish muhim hisoblanadi. Siyosiy muzokarlarda davlatlar, hududlar o'rtasidagi munosabatlar, terrorizm va boshqa muammolarni hal etish yo'llari ham ko'rsatib o'tiladi. Davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish uchun, xalqaro tashkilotlar yordamida muzokaralar o'tkaziladi. Bunday muzokarlarda davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning o'zgartirilishi, turli munosabatlarning rivojlanishi va boshqa muammolar ko'rsatiladi. Shunday qilib, siyosiy muzokarlarda siyosiy munosabatlarni yangilash uchun, davlatlar o'rtasidagi munosabatlar, hududlar o'rtasidagi munosabatlar, terrorizm va boshqa muammolarni o'rganish kerak bo'ladi.

Muzokarlarda ommaviy axborot vositalarining (OAV) faoliyati siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar kontekstida muhim o'rin tutadi. OAV muzokara jarayoni haqida keng jamoatchilikni xabardor qilish orqali siyosiy institutlarning ochiqligi va shaffofligini ta'minlaydi. Bu orqali fuqarolar tomonlarning pozitsiyalarini tushunishlari va muzokara jarayoni haqida obyektiv tasavvurga ega bo'lishlari mumkin. Ushbu jarayonda OAVning xolisligi va betarafligi muhimdir. OAV jamoatchilikning muzokarlarga nisbatan fikr va munosabatini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Axborot vositalari orqali tarqatiladigan axborot jamoatchilik fikriga ta'sir qilib, muzokaralarning qo'llab-quvvatlanishi yoki qarshilik bildirilishiga olib kelishi mumkin.

OAV muzokaralarni yoritish orqali hukumat va siyosiy institutlarning faoliyatini monitoring qiladi. Bu jarayonda OAV jamoatchilik uchun ma'lum bir kafolat rolini bajaradi, ya'ni muzokaralar jarayonida qonunbuzarliklar yoki adolatsizliklar bo'lsa, OAV ularni oshkor qilishda muhim vosita hisoblanadi.

Muzokaralarda ishtirok etayotgan siyosiy institutlar va shaxslar o'z pozitsiyalarini OAV orqali tushuntirib berishlari mumkin. OAV bu jarayonda muhim vositachi bo'lib, muzokaralardagi maqsadlar, shartlar va natijalar haqida jamoatchilikka to'g'ri ma'lumot yetkazadi. OAVning muzokaralardagi ishtiroki davlat va siyosiy shaxslarni jamoatchilikka hisobdor qilishga majbur etadi. OAV orqali yangiliklar tarqatilishi natijasida tomonlar muzokaralardagi harakatlari uchun javobgar bo'lib, jamoatchilik oldida o'z qarorlarini asoslab berishlari kerak.

OAVdan yomon maqsadlarda foydalanilishi natijasida, manipulyatsiya yoki axborot urushlari yuzaga kelishi mumkin. Siyosiy muzokaralarda ba'zi taraflar OAVni o'z manfaatlariga xizmat qildirib, noto'g'ri ma'lumot tarqatish yoki raqiblari haqida salbiy ma'lumotlar berish orqali muzokaralarning natijasiga ta'sir qilishga urinishi mumkin. Hozirgi raqamli asrda OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali muzokara jarayoni tezkor va keng qamrovda yoritilishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar jamoatchilik bilan tezkor muloqot qilish, turli nuqtayi nazarlarni yoritish va ularga nisbatan tezkor munosabat bildirish imkonini beradi. Shu tariqa, OAVning raqamli ko'rinishlari siyosiy jarayonlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar doirasida OAV demokratik jarayonlarning shaffofligini ta'minlab, jamoatchilik fikrini shakllantirish, davlat va siyosiy liderlarning javobgarligini oshirish va umumiy muzokara jarayoniga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatish salohiyatiga ega.

Siyosiy barqarorlikni ta'minlashda mediatsiyaning o'rni siyosiy konfliktologiya kontekstida alohida ahamiyat kasb etadi. Mediatsiya - bu siyosiy nizolarni hal qilishda, ziddiyatga kirgan tomonlarning o'zaro manfaatlarini inobatga olgan holda tinchlik bilan muammoni hal etishga qaratilgan vositachilik jarayonidir.

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-iyuldagi "Mediatsiya to'g'risida"gi O'RQ-482-sonli Qonuniga muvofiq "Mediatsiya - kelib chiqqan nizoni taraflar o'zaro maqbul qarorga erishishi uchun ularning ixtiyoriy roziligi asosida mediator ko'magida hal qilish usulidir"¹¹. Mediatsiya siyosiy nizolarni kuch ishlatish yo'li bilan emas, balki muloqot orqali hal qilish imkonini beradi. Bunda taraflar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan bartaraf etish orqali zo'ravonlikning oldi olinadi, bu esa, siyosiy tizimning barqarorligiga xizmat qiladi. Siyosiy konfliktologiya kontekstida mediatsiya biror bir siyosiy kuch yoki fuqarolik jamiyati guruhi manfaatlarini himoya qiluvchi emas, balki barcha tomonlarning manfaatlarini inobatga oluvchi mexanizm sifatida xizmat qiladi. Bu hukumat, muxolifat va boshqa siyosiy kuchlar o'rtasida muvozanatni saqlash va hamkorlikni mustahkamlashga yordam beradi.

Mediatsiya jarayonida tomonlar o'rtasida o'zaro tushunish va hurmat shakllanadi, bu esa, keng jamoatchilikning siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy hamjihatlikni kuchaytirib, davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro ishonchning mustahkamlanishiga olib keladi. Mediatsiya jarayonida barcha ishtirokchilarning manfaatleri uyg'unlashtiriladi va ularni qondirishga qaratilgan yondashuvlar ishlab chiqiladi. Bu siyosiy ziddiyatlar chuqurlashishining oldini oladi va tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni barqarorlashtiradi.

¹¹ <https://lex.uz/docs/3805227>

Mediatsiyaning samarali qo'llanilishi siyosiy va ijtimoiy barqarorlikka erishishga yordam beradi. Bu jarayonda xalqaro va milliy miqyosda tinchlik, xavfsizlik va adolat tamoyillari kuchayadi, bu esa, davlatning barqaror va izchil rivojlanishi uchun muhim omildir. Mediatsiya - siyosiy konfliktologiyada siyosiy barqarorlikni ta'minlash vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega. U ziddiyatlarni muloqot yo'li bilan hal qilish, ijtimoiy hamjihatlikni saqlash va tomonlarning manfaatlarini uyg'unlashtirish imkonini beradi. Bundan tashqari, mediatsiyaning qo'llanilishi siyosiy tizimni kuchaytirishga va siyosiy jarayonlarda tinchlikni saqlashga yordam beradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbekistonning davlat va jamiyat barqarorligini ta'minlashga qaratilgan siyosiy muzokaralar olib borish strategiyasi”** deb nomlangan bo'lib, unda muzokaralar jarayonida shaxs omilining roli, Markaziy Osiyo mintaqasida O‘zbekistonning siyosiy muzokaralarni samaradorligini oshirish strategiyasi tadqiq qilingan.

